

**YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASI
SHAKLLANISHINING ILMIY-TARIXIY ASOSLARI**

Ahmedova Dilrabo

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası

katta o‘qituvchisi, Qarshi

E-mail: ahmedovadil@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy qiyofasi, uni shakllantirish asoslari hamda ma'naviy-axloqiy qiyofa bo'yicha fikr bildirgan shaxslar, shuningdek, yoshlarning ma'naviy fazilatları shakllanishida oila, mahalla, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rni haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, axloq, oila, qiyofa, jamiyat, davlat siyosati, ma'rifat, ishonch, burch, qonun, huquq, daxldorlik, ma'suliyat, ishonch.

XX asrning ikkinchi yarmida jahonda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy jarayonlar kishilik jamiyatining milliy va xalqaro tuzilishini tubdan o'zgartirdi. Bu borada yuz bergan asosiy o'zgarishlardan biri shundaki, jahon sahnida nuqul bir millat va bir diniy konfessiya vakillaridan tarkib topgan jamiyatlar qolmadi. Lekin kishilik jamiyatida ayniqsa yoshlar o'rtasida yangi va yangi tendensiyalar paydo bo'lmoqdaki, bu tendensiyalar uning sohalarini tubdan o'zgartirib yubormoqda, ijtimoiy jarayonlarni keskin intensivlashtirmoqda, xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga batamom yangicha tus bermoqda. Ana shunday ahamiyatli tendensiyalardan biri globallashuv bilan bog'liq.

Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Ma'lumki kishilik jamiyatining siyosiy hayoti masalalariga doir qarashlarning vujudga kelishi uzoq taraqqiyotning natijasidir. Bunday siyosiy qarashlar yer yuzining barcha davlat va xalqlari tarixida majassamdir. O'z davrining yetuk a'zolari jamiyatning siyosiy hayotida bo'layotgan voqea va hodisalarga o'z munosabatlarini u yoki bu darajada bildirganlar hamda o'z qarashlarini turli shakllarda izohlab berganlar. Bu siyosiy qarashlar davlat va jamiyat rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat, uning taraqqiyotidagi g'oyalarda, mafkuralarda bir tomonlamalikni yoki turg'unlikni oldini olishga xizmat qilgan. O'z davrining ilg'or g'oyalari va qarashlari jamiyat, davlat tarqqiyotida, jumladan,

yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi pozitsiyasini oshirishga ham xizmat qilgan. Bu boradagi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy qarashlar tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ham o‘z ma‘no-mazmuni yo‘qotmagan hamda hamma davrlar uchun ham ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. Mamlakatning istiqboldagi taraqqiyotini ta‘minlovchi yoshlar, ularning siyosiy qiyofasi to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish, bu qarashlarning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qilish hamda o‘ziga xos jihatlarini ochib berish dolzarb masala hisoblanadi.

Chunki, O‘zbekistonda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar soni 20 milliondan oshdi. Bu esa mamlakatimiz aholisining 54 foizini yoshlar tashkil etadi [1; 7-b]. Yoshlarning miqdor jihatidan o‘sishi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ko‘rsatkichga ega. Shu nuqtai-nazardan yondashadigan bo‘lsak, aholining ko‘pchilik qismini tashkil etayotgan yoshlarni sotsial-siyosiy qiyofasining shakllanganlik darajasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi yoshlar O‘zbekistonni keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan avlod bo‘lishi mumkin.

Darhaqiqat, yoshlar istiqboldagi taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy kuchdir. Shuning uchun ham nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo mamlakatlari bugungi kunda asosiy e‘tiborni ana shu yosh avlodga qaratmoqda. Yoshlar siyosiy qiyofasining shakllanganlik darajasi esa o‘z navbatida mamlakat rivojini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu qarash faqatgina bugungi kunning asosiy masalasi emas, albatta.

Bundan 3000-4000 yil ilgari dunyoda ilk yozuv shumner mixxat yozuvlari paydo bo‘lgan bo‘lsa, undagi yozuvlarda shunday fikrlar uchraydi: « Bugungi kun yoshlari tarbiyasiz bo‘lib bormoqda, ular o‘zlaridan katta bo‘lgan insonlarning topshiriqlarini bajarmayaptilar, bu yaxshi emas» [2; 8-9-b].

Yuqoridagi fikrdan biz yoshlarning ijtimoiy-ma‘naviy qiyofasi masalasi har doim dolzarb va muammoli masala ekanligini ko‘rishimiz mo‘mkin. Yoshlar siyosiy qiyofasi bilan bog‘liq qarashlar ham davlat, jamiyat va shaxs takomillashuvi darajasi bilan bog‘liq ravishda muayyan bir davr uchun dolzarbligi bilan ahamiyatli bo‘lib qolaveradi.

Yoshlar siyosiy qiyofasi borasidagi qarashlarni o‘rganar ekanmiz, bu boradagi shakllangan qarashlar aynan so‘zma-so‘z yoshlar siyosiy qiyofasi tushunchasini bermasligi mumkin. Lekin ma‘no-mazmuni jihatidan bu tushunchaga mos keladigan qarashlar, fikrlar mavjud. Bu qarashlar yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va siyosiy yetukligini shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday ijtimoiy-siyosiy qarashlar zaminimizda yashab, ijod etgan buyuk mutafakkirlar, muhaddis olimlar, ma‘rifatparvarlar asarlarida hamda zamonamiz siyosatchilarining nutq va ma‘ruzalarida ham juda ko‘p uchraydi. Bu esa shunday buyuk insonlar diyori bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ayniqsa yoshlardan ajdodlarga munosib voris bo‘lishni talab etadi. Abu Nasr Farobiyning “Fozillar shahri” asarida zamin fuqarosiga

nisbatan keltirilgan qarashlarni yodga olsak. Bu asarda jamiyatning har bir fuqarosi-mansabi, tutgan o'ri, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar Fozil kishi. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda, Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi. Ota-ona va farzand, ustozu-shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi [3; 69-b].

Mutafakkirimizning bu fikrlari Fozillar shahri aholisiga nisbatan berilgan. Ana shu aholining tarkibida yoshlar qatlami ham mavjud, albatta. Birinchidan, fozil kishi deyilganda, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan ongli fuqaro nazarda tutiladi. U o'z pozitsiyasiga ega shaxs sifatida ona Vatani uchun qayg'uradi, ishlaydi va o'z kasbining ustasi bo'lib shakllanadi. Bu ularning fuqarolik pozitsiyasida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, "Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi. Ota-ona va farzand, ustozu shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi"-deyilgan, bu ularning ijtimoiy munosabatlardagi qiyofasida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, Fozillar shahri aholisi shahar nomidan kelib chiqib ham siyosiy etuk, faol ongli va madaniyatli insonlardir. Ular o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi. Bu ularning siyosiy qiyofasida ko'rinadi.

Bu boradagi fikrlar yana Abulqosim Mahmud az-Zamahshariyning qarashlarida ham uchraydi. Zamahshariyning qarashlarini tahlil qilganda, allomaning davlat tuzilishi va uning ravnaqi insondan, uning shaxsiy sifatleri, uning qanday ekanligi bilan bog'liqligini qat'iy ta'kidlanganligini, davlat taqdiri inson tafakkuri, bilimi, fe'l-atvori va aql-idrokiga bevosita bog'liqligini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin [4; 103-b].

Bu qarashlar hozirgi kunda ham amaliy ahamiyatga egaligi bilan e'tiborga molikdir. Mutafakkirning siyosiy qarashlari markazida shaxs erkinligi, uning kamoloti va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi kabi g'oyalar yotadi. Uning eng e'tiborga molik fikrlardan biri farzand tarbiyasi va uning ahloq-odobining mas'uliyati ota-onada ekanligini uqtirishidir. Bu bilan chegaralanmay u farzandga bilim berish va ma'rifatdan bahramand etish ham ota-onaning burchiga kirishini tushuntirib, shunga tashviq qiladi, undaydi va "O'z farzandini imkoni qadar yaxshi xulq-odobli, aqlli bo'lishga o'rgating. Magarkim, kimarsa yoshlikdan yaxshi xulq odob egallamas erkan, ulg'ayganda andin bilim talab qilmang. G'umay ekib bug'doy o'rolmaysizku, axir. Hamon shunday ekan, ota-ona o'z farzandiga dunyodagi jamiki ezguliklar bilan yo'g'rilgan ijobiy hislatlarni singdirib bormoqligi ming karra shartdir. Shul bois bolaga nisbatan o'z zimmangizga yuklangan mas'uliyatni his etgan holda yaxshi ta'lim-tarbiya berishga intiling. U o'zida ijobiy xususiyatlarni o'zlashtirsin va yaramas xatti-harakatlardan o'zini muhofaza etsin" [5; 74-b].

Xuddi, shuningdek, farzandlarni mustaqil hayotga o'rgatishning eng maqbul yo'li sifatida Zamahshariy ularning mashaqqatsiz moddiy to'kilikka erishtirmasli

tarafdoridir. U asarida “Farzandga deb mol yig‘ishlik unga abadiy hasrat yig‘ishlikdir”- deydi [6; 145-b]. Bu fikr esa bugungi kunda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va erkinlashtirishda yoshlarni mehnat qilishga, o‘z kuch-qudratiga ishongan holda faoliyat yuritishga o‘rgatishni talab etadi. Shuningdek bugungi pandemiya sharoitida nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoda ko‘payib ketayotgan kambag‘allikni qisqartirishda, ayrim yoshlardagi boqimandalikni yo‘qotishda ham dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi. Mutafakkir Zamahshariyning siyosiy g‘oya va qarashlari, ijtimoiy masalalarda bildirgan fikrlari va ahloqiy pand nasihatlarini shaxs tarbiyasi bilan birga uning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlashga, xalqimizning, jumladan, yoshlarning hulq-atvori, ularning hayotda o‘z o‘rni topishida pozitivligini shakllantirishga yordam beradi.

Bu esa o‘z navbatida yoshlar siyosiy qiyofasini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi ular o‘rtasidagi o‘zaro mas‘uliyat ham yoshlar siyosiy qiyofasining shakllanishida o‘z ta’sir doirasiga egadir. Bu borada imom Moturiydiy insonning davlat va jamiyat oldidagi mas‘uliyati haqida shunday deydi:–“Insondagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo‘naltirilmaligi, shaxs davlat oldida mas‘ul bo‘lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas‘ul bo‘lishi kerakligini nazariy asoslaydi. Shuningdek, shaxsning tanlash va iroda erkinligida, jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini asoslaydi” [7; 43-b]. Bu qarashlar esa aynan demokratik huquqiy davlatning fuqarolarilari talab etiladigan fazilatlarini o‘z ichiga oladi. Bu fuqarolarda huquq va burch birligi ta’minlangan bo‘ladi va ular o‘z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlarini bilan uyg‘unlikda ko‘radi. Shu bilan birga bunday davlat fuqarolari albatta siyosiy faol va huquqiy madaniyatli bo‘lishadi. Ular o‘z pozitsiyasida erkin faoliyat yuritishadi. Bu borada Ibn Sino shunday degan edi,– “Dunyo kamoloti uchun jamiyat a’zolarining erkin faoliyatiga katta ehtiyoj bor.” Jamiyat a’zolarining ko‘pchiligini tashkil etadigan yoshlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun esa huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda, shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Jumladan, 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘riida”gi Qonunning 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm,

separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish; yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalarini o‘z ichiga olgan [8; 3-b].

Bu huquqiy kafolatlar va yaratilgan imkoniyatlar yoshlar siyosiy qiyofasini shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi va ularning kayfiyatlari ijobiy tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Faqatgina endi yoshlar o‘z pozitsiyasida faol bo‘lib, o‘z kuchi va bilimiga tayangan holda yuksak marralar sari intilishlari darkor. Bu borada xitoy faylasufi Konfutsiy “...kishilarni egallab turgan o‘rinlarini, ijtimoiy mavqelarini o‘zgartirishlariga qarshi turgan. U insonlarning o‘z ijtimoiy mavqelarini o‘zgartirish yo‘lidan emas, balki shu mavqeyi mazmunini teran boyitishga chaqiradi. Bilimlar kishiga nafaqat ma’lumotli bo‘lish uchun, balki to‘g‘ri ish tutish, oqil xatti-harakatlar qilish uchun ham kerakdir” - deydi buyuk qomusiy olim [9; 104-b]. Bunda xitoy faylasufi kishilarning ijtimoiy mavqeyi, ya’ni egallab turgan o‘rnini yaxshi ahloq va ma’rifat bilan yanada boyitsa, ularning jamiyatdagi o‘rni o‘z-o‘zidan yuqori darajaga ko‘tarilishi haqida fikr yuritgan. Bu esa yoshlar siyosiy qiyofasini shakllanishidagi ahamiyatli fikridir. Xitoy faylasufi Konfutsiyning yaxshi ahloq tushunchasini Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai Sultoniy” asarida shunday ta’riflaydi: “Odobli bo‘lish-go‘zal xulq-atvorga ega bo‘lish demakdir. Go‘zal fe‘l-atvorning nishonasi 10 narsasidir. Bular yaxshilik, insofli bo‘lish, boshqa odamlardan ayb qidirmaslik, biror odam nojo‘ya harakat qilsa, uni yaxshi yo‘lga solish, biror odam o‘z aybiga iqrar bo‘lib uzr aytsa, uzrini qabul qilish, boshqalar uchun mashaqqatni o‘z ustiga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik, ochiq yuzli, shirig so‘zli bo‘lish, mahtojlarning hojatini chiqarish, muloyim va tavozeli bo‘lishdir” [10; 74-b]. Bu go‘zal fe‘l-atvordagi qarashlar ham yoshlar sotsial-siyosiy qiyofasini shakllanishida ahamiyatlidir. Bunda biror odam nojo‘ya xatti-harakat qilsa, uni yaxshi yo‘lga solish holati faol fuqarolik burchi hisoblanadi. Boshqalar uchun mashaqqatni o‘z ustiga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik esa shaxsiy manfaatlardan ustun ko‘rishi tushuniladi. Yoshlarning faol fuqaro sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi, uning egallab turgan pozitsiyasiga bog‘liq. Hayotda o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lish uchun esa muayyan kasb-hunarini, ilmni egallash lozim bo‘ladi.

Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir

Alisher Navoiy o‘z davrida yoshlarga murojaat qilib, “Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”, deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur tarqatishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o‘zlashtirishi lozim”, -degan edi [11; 132-b]. Zero, mamlakatimizda yosh avlodni kasb-hunarga o‘qitish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi yoshlarni professional ta‘lim asosida kasb-hunarga o‘qitish, ta‘lim berish ularni kelajakda o‘z hayotiy pozitsiyasini egallashga ko‘maklashadi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarda sotsial qiyofani shakllanishida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Ma‘rifatparvar Abdurauf Fitrat o‘z davrida “Xalqning, asosan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongini rivojlantirish, mavjud mustabid tuzumni batamom yo‘qotish, huquqiy davlatni vujudga keltirish, jamiyatni yangilash, uni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish lozim”- deb, bilgan va bu borada alohida fidoyilik ko‘rsatgan. Yetuk siyosatshunos va huquqshunos Abdurauf Fitratning turli sohada amalga oshirgan ishlari kelajak avlodlarga o‘rnak bo‘luvchi siyosiy faoliyati va beqiyos fuqarolik jasorati g‘oyatda ibratlidir.

Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Moziy istiqbolning torozusidir, har kim o‘lchasinu-bilsin” [12; 74-b]-deb bejizga aytmagan. Yoshlarni tarixiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga, bugungi kunga mos jihatlaridan ibrat olishga, eskirgan davr talabiga javob bermaydigan qarashlardan esa voz kechishga o‘rgatishimiz kerak. Biz istiqbolning ilk kunlaridanoq eski, qotib qolgan mafkuraviy aqidalardan voz kechishga, ma‘naviy yangilanishga, odamlarning qalbi va ongiga milliy g‘oya tamoyillarini singdirishga aniq siyosat olib bordik. Bu esa o‘z navbatida yurtdoshlarimizning tafakkurini o‘zgartirishga, islohotlarni joriy etishda yangicha yondashuvlarni shakllantirishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Darhaqiqat, bugungi yoshlar bundan 40-50 yilgi yoshlardan tubdan farq qiladi. Ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, qarashlari va o‘zlari oldiga qo‘ygan talablarida juda katta sezilarli o‘zgarishlar bor. Bugun yoshlarimiz mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlariga kamarbastaligi, demokratik islohotlarning maqsad va mazmunini chuqur anglashi, yangi munosabatlarga intilishi, izlanishi, o‘z ijtimoiy ovozigaga ega bo‘lish uchun harakat qilishi, o‘ziga va idrokiga ishonchining ortishi, o‘z salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashga tayyor turishi, shaxs sifatida komillikka intilishi, o‘z kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lashi, bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etishi, hayotga ochiq nazar va sofdillik bilan qarashi ularning sotsial-siyosiy qiyofasida demokratik islohotlarning ijobiy natijasi mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, yoshlar orasida bir qolipga tushib qolish, hayotdan zerikish, boqimandalik, befarqlik, davlat hokimiyati boshqaruviga ishonchsizlik, o‘z huquq va erkinliklarini bilmasligi natijasida o‘z ijtimoiy holatidan noroziligi, davlat inson uchun barcha sharoitni yaratib berishi lozim degan fikrni ilgari suruvchi, boylik ortidan quvish natijasida engil daromad topishga ishtiyoqmand, o‘z manfaatini ustun qo‘yuvchi, ma‘naviy qashshoq, faqat bugungi kun dardi bilan yashashi natijasida kelajagini tasavvur qila olmaslik,

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga loqayd bo'lgan siyosiy qiyofalarning tushkun kayfiyat ko'rinishlari ham yo'q emas. Biz aynan shu toifadagi yoshlar borasida boshlagan ishlarimizni davom ettirishimiz, eng muhimi yangi hayotga kirib kelayotgan avlodni jamiyatimizda munosib o'rin egallashiga ko'maklashimiz darkor. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizga bu jarayonda ko'p asrlik ma'naviy merosimiz, ilg'or va zamonaviy tajribalar keng ko'lamli yordam beradi, albatta.

Yoshlarning ma'naviy – axloqiy qiyofasini shakllanishida oliy ta'limning alohida o'rni bor. Chunki u shaxsning bilimlari va malakalarini yaxlit tizimga soladi, uni mustaqil shaxs sifatida voyaga yetkazadi, ijtimoiy pozitsiyasini qaror toptiradi. Oliy ta'lim olgan insonning madaniy saviyasi jamiyatning yaqin kelajakdagi ma'naviy-ruhiy holati xarakterini belgilab beradi. Agar bunday shaxs yuksak madaniy saviyaga, jumladan mustahkam diniy bilimlar tizimiga, o'zga g'oyalar vakillari haqidagi progressiv tasavvurlarga ega bo'lsa, jamiyatda ham bag'rikenglik muhiti hukm suradi. Shaxsning oliy ta'lim davomida bunday bilimlardan bebaha qolishi jamiyatning ma'naviy-ruhiy holatida ham, bag'rikenglik muhitida ham aks-sado beradi.

Shuni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarining barcha ta'lim yo'nalishlarida “Dinshunoslik”, “Falsafa” fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Globallashuv avj olgan, jamiyat a'zolarida va aymiqsa yoshlarda negativ ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'payib ketgan bugungi kunda ushbu masalada bag'rikenglikni shakllantirish, uning orqali esa ijtimoiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, mafkuraviy xavfsizlikni kuchaytirish, jamiyat a'zolari madaniy saviyasini yuksaltirish, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish imkonini beradigan vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'naviyat, axloq va diniy ta'lim jarayoni insonning umri mobaynida muttasil davom etmog'i lozim, degan fikrdan xulosa chiqarish mumkinki, u ta'lim jarayonidan keyingi davrlarda – jamiyat a'zosining mehnat jamoasida, mahallada bo'lgan paytida ham olib borilmog'i darkor. Bunday yondashuv yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda haqiqatan uzluksizligini ta'minlaydi hamda shaxs axloqiy-diniy qarashlarining mudom shakllanib borishiga zamin yaratadi.

Ta'limdan keyingi davrda amalga oshiriladigan yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofalarining shakllanishida mehnat jamoalaridagi ma'rifiy-madaniy ishlar alohida o'rin tutadi. Afsuski, bugungi kunda mehnat jamoalarining aksariyati o'zining iqtisodiy funksiyalarini ado etish bilan cheklanib qolmoqda. Oqibatda, mehnat jamoasining ma'rifiy-madaniy imkoniyatlari realizatsiya bo'lmay qolib ketmoqda. Shu munosabat bilan mazkur sub'ektlar ma'rifiy ishlarini takomillashtirish, ayniqsa uning kontekstida axloqiy-ma'naviy, diniy ta'limga ham vaqt ajratish zaruriyati ortmoqda. Bu borada, masalan, mutaxassislarni jalb qilgan holda yoshlarning ijtimoiy qiyofasini shakllantirishga bag'ishlangan maxsus o'quv kurslarining tashkil etilishi ayniqsa

samarali bo'ladi. O'quv kurslarning mehnat jamoasida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning mehnat turi, dunyoqarashining o'ziga xos jihatlariga mutanosib ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, buning uchun eng avvalo ana shunday kurslarni tashkil etish va o'tkazish imkonini beradigan qator uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar yaratish, zaruriy ma'rifiy materiallarni tayyorlash lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sherozovich, M. B. (2024). DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES (1930-1960). *Modern education and development*, 16(5), 267-277.

2. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yy). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

3. Sherozovich, M. B. (2024). INDUSTRIAL MEASURES IN UZBEKISTAN 1925-1954 AND THEIR RESULTS (in the case of Kashkadarya and Surkhandarya regions). *World scientific research journal*, 24(1), 195-200.

4. Sherozovich, M. B. (2024). CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF TRAINING INDUSTRY PERSONNEL IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1925-1950). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 221-225.

5. Baymanovna, A. R. (2024). Uzbekistan-India: Development of Economic Cooperation. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(5), 594-598.

6. Baymanovna, A. R., & Isxoq ogli, Q. M. (2024). O 'ZBEKISTON BILAN HINDISTON O 'RTASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 31-34.

7. BAYMANOVNA, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). O 'ZBEKISTON VA HINDISTON MAMLAKAT XALQLARINING SPORT SOHASIDAGI MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 27-30.

8. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO 'ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 6(2), 86-94.

9. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.

10. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.

11. Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O

‘RNI. Modern education and development, 16(5), 216-226.

12. Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 377-385.

13. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA’NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 576-581.

14. Kuziyevich, E. U. (2023). SETTLEMENTS ASSOCIATED WITH THE “BATOSH” SEED IN THE GUZOR STATION OF THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE LATE 19TH–EARLY 20TH CENTURIES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(7), 116-119.

15. Ergashev, U. K. (2024). THE BUKHARA EMIRATE: A HISTORICAL OVERVIEW. Web of Technology: Multidimensional Research Journal, 2(12), 131-135.

16. Ergashev, U. Q. (2024). IMPORTANT INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF THE GUZOR KINGDOM OF THE BUKHARA EMIRATE (BASED ON THE EXAMPLE OF GULSHAN'S BOOK “THE HISTORY OF HUMOYUN”). Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 74-79.

17. Esonova, N. (2024). О ‘ZBEKISTONDA SANOAT RIVOJLANISHI TARIXINING MUSTAQILLIK DAVRIDA O ‘RGANILISHI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 56(2), 19-22.

18. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). International journal of artificial intelligence, 4(07), 342-343.

19. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). Web of Technology: Multidimensional Research Journal, 2(9), 5-13.

20. Ochilova, N. R. (2022, December). WAYS OF DEVELOPING THE ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 4, pp. 34-41).

21. Ruzimuratovna, N. O. (2022). Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 3(11), 116-118.

22. Ochilova, N. (2023). SHaping the thinking of youths by promoting the idea of national recovery-national upgrade. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(10), 75-79.

23. Akbarovna, S. N. (2024). FIVE INITIATIVES AND ITS IMPLEMENTATION IN SECONDARY SCHOOLS. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2(6), 11-12.

24. Sharapova, N. A. (2024). THE FACTORS OF ITS DEVELOPMENT AND INTRODUCING THE PROFESSION IN SECONDARY SCHOOLS. European Science Methodical Journal, 2(6), 68-72.

25. Akbarovna, S. N. (2024). PROBLEMS IN THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND THEIR SOLUTION. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(3), 321-323.

27. Murtazova, S., & Ashurov, N. ABU MUIN AN-NASAFI-THE CONTINUATOR OF THE DOCTRINE OF MOTURUDIYA.

28. Burievna, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

29. Burievna, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

30. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.

31. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.

32. Жумаева, Ш. С. (2023). Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий ҳимоя. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5 SPECIAL), 286-290.

33. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.

34. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peerian Journal*, 25, 11-16.

35. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.